

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi (XIX asrning ikkinchi yarmi).....	203
M.M.Temirova	
O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari	208
Q.Sulaymonov	
Iqtisodiyotni globallashtirishda informatsiyaning o'rni	213
X.E.Xodjamberdiyev	
Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri.....	216
A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev	
Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi (Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida).....	222
M.M.Abdullayeva	
Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi (Namangan viloyati misolida)	226
F.Abdurasulova	
Buxoro amirligida diniy ta'limning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi davrida rivojlanishi	232
A.A.Aloxunov	
Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati	236
M.B.Siddiqov	
Ikkinchi jahon urushi yillarida pensiya tizimi	241
G.A.Abdug'aniyeva	
Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi	247
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi.....	252

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Xudoyberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati	257
G.V.Abdullayeva	
Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi.....	260
S.Q.Mamatova	
Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari.....	267
N.Y.O'roqova	
Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini	271
D.A.Qahharova	
Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili.....	280
S.A.Xaqnazarova	
An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar	287
M.Islomova	
Hayot haqiqati va badiiy tafakkur	290
A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova	
Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida)	294
Y.B.Eshmatova	
Turk hikoyachiligida an'ana va yangilanishlar sintezi.....	299
Д. О.Турдалиев	
Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации	303
F.B.Sultonqulova	
Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiati	306
G.A.Jurayeva	
Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar.....	310



UO'K: 94(47+575)"18"

**FARG'ONA VILOYATINI ROSSIYA IMPERIYASINING XOM ASHYO BAZASIGA
AYLANTIRILISHI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI)****ПРЕВРАЩЕНИЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В СЫРЬЕВУЮ БАЗУ РОССИЙСКОЙ
ИМПЕРИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX ВЕКА)****THE TRANSFORMATION OF FERGANA REGION INTO A RAW MATERIAL BASE OF
THE RUSSIAN EMPIRE (SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY)****Sharafiddinov Abdug'affor** 

Farg'ona davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada milliy, Sankt-Peterburg arxivlari materiallari va boshqa tarixiy manbalar asosida XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya Imperiyasi tomonidan Farg'ona viloyatini xom ashyo bazasiga aylantirilishi, buning uchun esa paxtachilikning rivojlantirish uchun ko'rgan chora-tadbirlari haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

В статье на основе материалов национальных и петербургских архивов и других исторических источников рассматривается превращение Ферганской области в сырьевую базу Российской империи во второй половине XIX века, а также меры, принятые для ее развития. производства хлопка.

Abstract

The article discusses the transformation of Fergana region into a raw material base by the Russian Empire in the second half of the 19th century, based on the materials of the national and St. Petersburg archives and other historical sources, and the measures taken for the development of cotton production.

Kalit so'zlar: Paxtachilik, amerika navi, mahalliy nav, pud, chig'iriq, firma, desyatina, uyezd, plantatsiya, tajriba stansiyasi, madaniy o'g'itlar, vegitatsiya, plug, irrigator, artezan, rekonstruksiya, fermer, kredit, konsentratsiya.

Ключевые слова: Хлопок, американский сорт, местный сорт, пуд, колокольчик, фирма, десятина, уезд, плантация, опытная станция, культурные удобрения, вегетация, плуг, ирригатор, артезан, реконструкция, земледелец, кредит, концентрация.

Key words: Cotton, American variety, local variety, pud, bell, firm, desyatina, uyezd, plantation, experimental station, cultural fertilizers, vegetation, plow, irrigator, artesian, reconstruction, farmer, loan, concentration.

KIRISH

Podsho Rossiyasida tobora rivojlanayotgan kapitalizm sharoitidagi sinfiy o'zgarishlar yangi hududlarni bosib olishni taqozo qilmoqda edi. Bunday "yangi" hududlar Rossiya uchun birinchi navbatda O'rta Osiyo xonliklari bo'lishi mumkin edi. Chunki Rossiyani bu o'lkaning moddiy boyliklari, turli xom ashyo manbalari: paxtadan boshlab oltinlari, bundan tashqari cheksiz tayyor mahsulotlar bozori va arzon ishchi kuchi, qulay iqlim sharoiti va jug'rofiy joylashuvi, Sharqqa darvoza bo'lib xizmat qilishi kabi katta imkoniyatlari qiziqtirar edi.

XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo hududida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari mavjud bo'lib, iqtisodiy jihatdan qaloq feodal munosabatlar hukmronligi davom etayotgan davr edi. Aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik bilan shug'ullanar edi. Qo'qon xonligida tashqi va ichki savdo rivojlangan edi.

XIX asr o'rtalariga kelib o'zaro feodal kurashlar xonliklar hokimiyatini zaiflashuviga, Qo'qon xonligi boshqa xonliklar kabi inqiroz holatiga kelib qolgan, bu esa Podsho Rossiyasi bosqinining osonlashuviga olib kelgan edi. 1876-yilga kelib xonlik Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi. Xonlik o'rnida Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Farg'ona viloyatiga asos solindi.

Farg'ona viloyati tashkil etilgandan keyin ham qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinda saqlanib qoldi va paxtachilikni rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratdi.

Chunki, Turkiston o'lkasiga podsho Rossiya tajovuzining asosiy sabablaridan biri – o'zining to'qimachilik sanoatini paxta xom ashyosi bilan ta'minlashdan iborat edi. Podsho hukumati tobora o'sib borayotgan sanoatning paxtaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida Turkistonda paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan choralarni amalga oshirib bordi. Bu sohada, ayniqsa, Farg'ona vodiysida muhim ishlar qilindi. O'zbek paxtasini rus to'qimachilik sanoatining talablariga moslashtirishni va daromadni oshirishni ko'zlab, Amerika paxta navini o'lkada iqlimlashtirishga harakat qilganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Farg'ona vodiysida, 1879-yilda birinchi marta yangi navlar Namangan uyezdining Chust qishlog'ida ekib ko'rildi. Biroq birinchi tajriba ijobiy natija bermadi. Chunki ekilgan paxta navlari (seya island) serhosil bo'lsada, kechpishar edi.[1.19,20]

1980-yilga kelib, Chust uyezdida ko'rgazmali tajriba uchastkasi tashkil etilib, paxtaning 20 dan ortiq amerika navlari (king, upland, triumf, russels, florida) sinab ko'rildi. Bularndan upland va king navlari Farg'onaning obi havosiga mosligi, mahalliy paxta navlariga nisbatan serhosil ekanligi aniqlandi. Tajriba uchastkasida ekilgan mahalliy paxta navlari o'rtacha har desyatidan 35-40 pud, amerika navlaridan esa 70-75 pud hosil olindi. Yangi paxta navlarini mahalliy paxta navlariga nisbatan afzalligi aholi o'rtasida targ'ibot qilina boshlandi. Lekin dehqonlar bu yangilikka dastlab shubha bilan qaradilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dehqonlarni qoniqtirmagan asosiy sabablardan biri, Amerika paxtasini qo'l chig'irig'i bilan tozalashda chigitning toza ajralmasligi edi. Rus ma'muriyati, sanoat egalari, firmalar paxtani chigiti bilan sotib olishga va'da berdilar. Bundan tashqari, 1880-yildan 1884-yilgacha yangi nav paxta urug'larini ommalashgungacha bepul tarqatib turdilar.[10.287]

1884-yildan boshlab, Amerika paxtasiga boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlariga nisbatan yengil soliq solinadigan bo'ldi. O'lkada qishloq xo'jalik ekinlarining bir desyatinasidan olinadigan o'rtacha daromad makkajo'xoridan-36, lalmikor bug'doydan-21, sug'oriladigan bug'doydan-41, bedadan-80, paxtadan esa 100-200 so'mga teng edi. Lekin ulardan olinadigan soliqlar bir xil bo'ldi. Amerika navlarini rivojlantirishda tashkil etilgan urug'chilik va ko'rgazmali tajriba uchastkalari katta rol o'ynadi. 1880-1900 yillar ichida Namangan uyezdida Ko'l, Chust, Qizil ravotda, Andijon uyezdida Jalolobod, Oyim, Amirbek, Marg'ilon uyezdida Kirmachi, Arabmozor, Qo'qon uyezdida Ultarma kabi agronomiya tajriba plantatsiyalari tashkil etilgan edi.[2.12]

Bu tajriba stansiyalari aholi o'rtasida yangi paxta navlarining afzalligini tashviqot qilish, paxta maydonlarini o'g'itlashning yangi metodlarini aholiga yetkazish hamda qishloq xo'jalik texnika vositalarini joriy etishni vazifa qilib qo'ygan edi.

Amerika navlari ustidan olib borilgan birinchi muvaffaqiyatli tajribalar natijasida vodiyning hamma rayonlarida qisqa vaqt ichida Amerika navi ekila boshladi. Masalan, 1885-yilda 1000 desyatina, 1886-yilda 12000 desyatina, 1887-yilga kelganda 13200 desyatina yerga yangi nav paxta ekildi. [6.2]

Amerika paxta navi ekilgan maydonlarni yildan-yilga ortib borganligini 1-jadvaldan bilishimiz mumkin. [12]

1-jadval

Yillar	Marg'ilon	Qo'qon	Andijon	Namangan	Viloyat bo'yicha
1888	2500	2100	5200	4300	14100
1890	5500	4300	12500	10200	32500
1892	12800	8800	32800	18800	72200
1894	11500	8600	30000	17600	67600
1896	25300	14400	47400	27800	115700
1898	20000	10000	41500	24400	95500
1900	34500	30500	56500	42500	174000

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, viloyatda 1888-yilda hammasi bo'lib 14100 desyatini maydonga amerika navli paxta ekilgan bo'lsa 1900-yilga kelib bu ko'rsatkich 34500 desyatina yetgan yoki

TARIX

viloyat miqyosida 12 yil ichida Amerika navli paxta ekilayotgan maydonlar miqdori salkam 12,4 barobarga ortgan.

Farg'ona viloyatida paxtachilikni rivojlanishi dastlab Amerika paxta navi maydonlarining kengayib borishi hisobiga bo'lgan (2-jadval). [11.345,346]

2-jadval

Yillar	Amerika paxta navi maydoni (desyatina hisobida)	Mahalliy paxta navi maydoni (desyatina hisobida)	Viloyat bo'yicha (desyatina hisobida)
1888	15008	19661	34669
1890	32492	18649	53141
1892	72588	17196	89784
1894	67696	14644	82338
1896	115727	19799	128726
1898	95544	10686	106230
1900	174026	12300	19326

Jadvaldan ko'rinib turibdiki Amerika navi paxta maydonlarining o'sib borishi jarayonida mahalliy paxta maydonlarining qisqarib borayotganligini kuzatish mumkin. 1888-yilda mahalliy nav paxta maydoni 34669 desyatini tashkil etgan bo'lsa, 1900-yilga kelib 19326 desyatini tashkil etgan.

XIX asrning 90-yillari oxirida rus mutaxassislari madaniy o'g'itlar-superfosfat, azot, fosfordan foydalanishning progressiv metodlari va ahamiyatini mahalliy aholiga ko'rsatib, bu sohadagi tajribalarni omma orasiga yoya boshladilar.

Vegititsiya yo'li bilan hosilni ko'tarish ishlari ham omma o'rtasida tashviqot qilindi. Namunali urug'lik yetkazuvchi plantatsiyalarni tashkil etish vodiya paxta sifatini yaxshilash sohasida qilingan muhim ishlardan biri bo'ldi. Mazkur plantatsiyalar paxta urug'larini yaxshilash sohasida katta ishlar olib bordilar.

Ilgarigidek g'alla ekinlari kabi qo'l bilan sochib emas, balki egat usulida ekish yo'li bilan paxta oralariga ishlov berishni osonlashtirish yo'llari joriy etila boshlandi. Egat usulida ekish yangi progressiv metod bo'lib, u xo'kiz, ot qo'shlari va turli qishloq xo'jalik texnikalari yordamida ishlashga yo'l ochdi.

Yangi qishloq xo'jalik texnikalari, ayniqsa, plug bilan xaydalib ekilgan paxtadan omoch bilan xaydalib ekilgan paxtaga nisbatan bir necha marta ortiq hosil olingan. [7.12,14]

Masalan, 1898 Namangan paxtachilik uchastkasida plug bilan ishlov berilgan har bir desyatina yerdan 110 pud, omoch bilan ekilgan har bir desyatina yerdan esa o'rtacha 55-60 pud hosil olingan.

90-yillarning oxiriga kelib upland, ko'k chigit, king kabi paxta navlaridan 75-80 puddan hosil olina boshladi. Bu navlar sifatli bo'lishi bilan birga vaqtida pishib yetiladi. Farg'onadagi ba'zi rayonlar, chunonchi, Andijon uyezdining Asaka, Qora suv, Oyim; Marg'ilon uyezdining Quva, Yakkatut, Oltiariq; Namangan uyezdining Chust, To'raqo'rg'on kabi volost dehqonlari yerlarga ishlov berish, texnika va o'g'itlarning progressiv metodlaridan foydalanish natijasida o'rtacha bir desyatina yerdan 70-75 pud, alohida uchaskalardan 100-115 pud hosil ola boshladilar. 1880-1890-yillar ichida Farg'ona viloyati bo'yicha umumiy o'rtacha hosil 50-55 pudga yetdi. [3.9]

Ma'lumki, Turkiston, jumladan Farg'ona qishloq xo'jaligi barcha tarmoqlari rivojlanishi sun'iy sug'orish ishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, paxtaning serhosil bo'lishi, paxta maydonini kengaytirish, qo'riq yerlar o'zlashtirish va bu yerlarni yangi paxta maydoniga aylantirish ishlari yangi sug'orish bazalarini vujudga keltirishni talab qiladi. Rus injener, geolog-irrigatorlari Sir, Qora, Norin daryolari atroflarida yangi kanallar qurish sohasida katta qidiruv ishlarini olib bordilar. Masalan, 1888-yilning may oyida "Ulug'nog'or" kanali Jilin boshchiligidagi geolog-irrigatorlar tomonidan to'liq o'rganishga kirishildi va uning sug'orish imkoniyatlari kengaytirildi. Kanal rekonstruksiya qilinishi natijasida xonlik davrida 70 desyatina yerni sug'orish mumkin bo'lgan bo'lsa, endi 200-220 desyatina yerni sug'orish imkoniyatiga ega bo'ldi. Farg'ona vodiysidagi eski ariqlar kengaytirildi. Norin, Sir va Qoradaryo bo'ylariga nasoslar o'rnatildi, artezan suvlaridan foydalanish tavsiya etildi.

XIX asrning oxirlarida Farg'ona tarixida birinchi marta motorlar yordamida daryolardan suv chiqarish va shu asosda qo'riq yerlarni o'zlashtirish sohasida muhim ishlar qilindi. Turkistonda bunday nasoslar 99 ta bo'lib, 78 tasi Farg'ona viloyatiga joylashtirilgan edi. [13.164]

Yuqoridagi faktlar shuni ko'rsatib turibdiki, hokimiyat yangi yerlarni o'zlashtirish va paxta maydonlarini kengaytirishga harakat qilgan. Lekin, irrigatsiya sohasidagi o'zgarishlar Farg'ona xalqlarining asrlar davomida suvga bo'lgan talabini qondira olmadi. Oz bo'lsa ham amalga oshirilgan tadbir-choralar Farg'ona vodiysida paxtachilikni o'sishiga olib keldi.

Natijada, Farg'ona viloyati XIX asrning 90-yillari oxirlariga kelib, Rossiyaning asosiy paxta bazasiga aylandi. U Turkiston viloyatlari ichida Rossiyaga paxta, xom ashyo yetkazib berishda salmoqli o'rinni egalladi.

Xullas, Farg'onaning yalpi paxta xom ashyosi 10 yil ichida Sirdaryo va Kaspiy orti viloyatlariga nisbatan 52 marta, Samarqand viloyatiga nisbatan 21 marta ortiq o'sgan. XIX asrning oxirlarida Rossiyaning to'qimachilik sanoatiga o'rtacha har yili 19800000 pud paxta sarflangan bo'lsa, shundan 8800000 pud paxtani Turkiston o'lkasi yetkazib berardi. [14.34] Farg'ona viloyati esa Turkiston paxtasining 75-80 foizini tashkil etgan.

Paxta maydonlarining donli ekinlar hisobiga o'sib borishi paxtakor dehqonning donga bo'lgan muxtojligini oshirib yubordi. Tashqaridan Farg'onaga keltirilgan don aholi ehtiyojlarini qondira olmadi. Natijada oziq-ovqat bahosi oshib bordi, 1890-yildan 1894-yilgacha bir pud g'allaning narxi 2-5 marta, paxtaning narxi 1 so'm 60 tiyindan 3 so'm 50 tiyingacha o'sgan bo'lsa, 1893-1896 yillarda Farg'onada oziq-ovqatning narxi 200-250 foizga ko'tarildi. [4.47] 1901 yilga kelib Farg'onada bir pud bug'doyning narxi 16 so'm, arpa 11 so'm 20 tiyin, makkajo'xori 13 so'm 40 tiyinga yetdi, xuddi shu vaqtning o'zida bir pud paxtaning narxi 7 so'm 20 tiyinni tashkil etardi. Shu bois, 1901-yil 19-aprelda "Закаспийское обозрение" gazetasi "Andijonda dahshatli qaxatchilik shak-shubhasizdir" deb yozgan edi. "Bunday qimmatchilikda Paxtakor dehqon qorni to'yib ovqat yemaydi, yetishmovchilik yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. [5.2,3] Farg'ona harbiy gubernatori 1901-yilda Turkiston general-gubernatoriga bergan hisobot dokladnomasida "Paxtachilikning rivojlanishi oblastda donli ekin maydonlarini qisqartirib yubordi, aholining donga muhtojligi o'sib boryapti" deb yozgan edi.

Demak, paxtachilikning o'sishi dehqonlarning hayotini yaxshilamadi. Rus moliyaviy kapitali fermerlar va mahalliy burjuaziya orqali paxta sotib olish va sotish ishlari ustidan to'la nazorat o'rnatdi. Natijada paxtakor dehqon paxtani bozordagi narx qanday bo'lishidan qat'iy nazar, yuqoridagi mahalliy boylar taklif qilgan narxdan ortiqcha sota olmas edilar. Fermerlar va boshqa ekspluatator doiralar o'z navbatida dehqonlarga qarzni kelgusi hosil hisobiga katta foiz bilan berar edilar.

Dehqonlarga kelgusi paxta hosili ustidan kredit berish kapital jamg'arish manbai, ekspluatatsiya vositasigina bo'lib qolmasdan, balki mahalliy boy-quloqlarning yaxshi yerlarini o'z qo'llarida konsentratsiya qilish quroliga ham aylandi.

S.Ponyatovskiy bu haqda shunday yozadi: "Kelgusida paxta hosili uchun dehqonga kredit berish shu xo'jalikni kelajakda xonavayron qilish demakdir". [16.321]

Paxtachilik komiteti paxta sotib olishning bunday formasini o'z dokladnomasida quyidagicha tasvirlaydi: "Hosil bo'lmay qolgan taqdirda qarzlarni kelgusi yilga ko'chiriladi, kelgusi yilda qarzning foizi oshadi va oqibatda bechora dehqonning ahvoli yerni sotish bilan tugallanadi". Umuman olganda, 1901-yilda Farg'onada 30 foizga yaqin paxtachilik xo'jaliklari garovga qo'yilgan. Natijada 1903-yilga kelib Farg'ona viloyatidagi paxtachilik xo'jaligining deyarli yarmi xonavayron bo'lgan.

Dehqonlarning xonavayron bo'lishi, ayniqsa, hosilsiz va ocharchilik (1878, 1880, 1892, 1893, va 1896) yillari tezlasha boradi. A.Middendorf Farg'onadagi qashshoqlikning ko'rib, "Bu yerdagi ochlik, qashshoqlik, dehqonlarning ayanchli ahvoliga nazar tashlaganda Yevropadagi ochlikni ochlik qatoriga qo'shmasa ham bo'lar ekan" degan xulosaga keladi.

Qishloqlarda yildan-yilga yersizlar soni ko'payib bordi. Yersiz dehqonlar shaharlarga ish axtarib borib mahalliy ishchilar safini to'ldirdilar. 1880-1900-yillar ichida faqat Marg'ilon uyezdida chorikorlar 62,3 foiz, mardikorlar 25,9 foizni, Andijon uyezdining qishloqlarida yersizlar 60 foizni tashkil etgan. Farg'onaning ba'zi rayonlarida yersizlik 40-45 foizga yetgan.

XULOSA

Shunday qilib, paxtachilikni rivojlanishi asosida ekonomikada, qishloq xo'jalik texnikasida, sotsial munosabatlarda ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Tovar-pul munosabatlari xo'jalikning hamma sohalariga kirib bordi va qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlar paydo bo'la boshladi. Bu esa, o'z navbatida, sinfiy kurashni keskinlashtirdi. Biroq paxtachilik izchil va keng ravishda rivojlanmadi.

TARIX

Bunda chorizmning mustamlakachilik siyosati va milliy zulmi sabab bo'ldi. Qishloq xo'jaligida hamon feodal munosabatlar hukmronlik qilardi. Paxta rus kapitalistlari va mahalliy boy-quloqlarga katta boylik keltirgan bo'lsa, Paxtakor dehqonning iqtisodiy ahvolini tobora og'irlashtirdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ЎзР МА, 10-фонд, 15-рўйхат, 690-иш., 19-20-варақлар
2. ЎзР МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 92-иш., 12-варақ
3. ЎзР МА, 1-фонд, 17-рўйхат, 97-иш., 9-варақ
4. ЎзР МА, 1-фонд, 12-рўйхат, 32-иш., 4-7-варақлар
5. ЎзР МА, 1-фонд, 93-иш., 2-3-варақлар
6. СПб. МДТА, 404-фонд, 1-рўйхат, 6-иш., 2-варақ
7. СПб. МДТА, 404-фонд, 1-рўйхат, 20-иш., 13-14-варақлар
8. СПб. МДТА, 404-фонд, 10-рўйхат, 10-иш., 8-варақ
9. СПб. МДТА, 1896-фонд, 1-рўйхат, 8-иш., 49-варақ
10. Туркестанское сельское хозяйство, 1906, 4-сон, с.287.
11. Туркестанское сельское хозяйство, 1903, 12-сон, 375-346-бетлар; 1915, 16-сон, 854-бет.
12. Жадвал Фарғона вилояти статистик обзорлари маълумотлари асосида тузилган. 1888-1901-йиллар
13. Сборник сведений о Средней Азии и русском Туркестане. Ташкент.-1887, с.164.
14. Азиатская Россия. Т.2. СПб. – 1914, с.341.
15. Пален К.К. Материалы к характеристике народного хозяйства Туркестана. СПб.- 1972, с.116.
16. Понятовский С. Опыт изучения хлопководства в Туркестане и Закаспийской области. СПб. – 1913, с.321.